

**PEDAGOGLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH
JARAYONINI LOYIHALASH VA TASHKIL ETISH**

Toshkent amaliy fanlar unversiteti

“Maktabgacha ta’lim metodikasi”

kafedrasi katta o‘qituvchisi

Xudayberdiyeva Janona Rustamovna

Annotatsiyasi: *Ta’lim tizimi zimmasiga yuklatilayotgan zamonaviy talablar uni rivojlantirishda istiqbolli yo‘nalish sifatida individuallashtirishning ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Chunki, individuallashtirish ta’lim amaliyotining bosh vazifalaridan biri bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirish, faoliyatini ongli tushunish va o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga imkon beradi..*

Kalit so'zlar: *Ta’lim,,kreativlik, faoliyat, muloqot, pedagog,ta’lim-tarbiya, genez, tahlil*

Аннотация: *Современные требования, предъявляемые к системе образования, все больше повышают значимость индивидуализации как перспективного направления ее развития. Потому что индивидуализация позволяет развивать человеческий капитал, что является одной из основных задач образовательной практики, создавать необходимые условия для осознанного понимания деятельности и проявления своего потенциала.*

Ключевые слова: *Образование, творчество, деятельность, общение, педагог, воспитание, генезис, анализ.*

Annotation: *The modern requirements imposed on the educational system are increasingly increasing the importance of individualization as a promising direction in its development. Because individualization allows for the development of human capital, which is one of the main tasks of educational practice, the creation of necessary conditions for the conscious understanding of activities and the manifestation of one's potential.*

Keywords: *Education, creativity, activity, communication, pedagogue, education, genesis, analysis*

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi zimmasiga yuklatilayotgan zamonaviy talablar uni rivojlantirishda istiqbolli yo'nalish sifatida individuallashtirishning ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Chunki, individuallashtirish ta'lim amaliyotining bosh vazifalaridan biri bo'lgan inson kapitalini rivojlantirish, faoliyatini ongli tushunish va o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Shunga mutanosib ravishda, pedagogika nazariyasi va amaliyotida ham individuallashtirish g'oyasining paydo bo'lishi ta'lim jarayonida shaxsning individual xususiyatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari, qobiliyatini inobatga olish va shu asosda o'qitish usullarini tanlash zaruriyatining vujudga kelishi bilan bog'liq.

Tadqiqotchilar tomonidan ta'limni individuallashtirish g'oyasi bilan bog'liq turlicha qarashlar ilgari surilgan. Jumladan, pedagogik bilimning (unga individuallashtirish ham daxldor) rivojlanishini o'rganishda uning mohiyatini g'oya shaklida tushunish tayanch nuqtani bildirishi bilan bog'liq qarashlar shular jumlasidandir. Mazkur yondashuv tarafdorlaridan biri Ye.I.Ivanovning qayd etishicha: "...g'oya umumlashtirishning eng yuqori shakli bo'lib, unda sintez qilingan nazariy bilimlar va o'rganilayotgan obyekt haqidagi fikrlar birlashtiriladi, shuningdek, mo'ljallar va uni amalga oshirish usullari belgilanadi" [; 39-b.]. Demak, ilmiy g'oyalar mavjud bilimlarni rivojlantirish, sintezlash, nazariya va amaliyotni birlashtirish, avvalgi tajribalarni o'rganish, tahlil qilish asosida tizimga aylantirish orqali vujudga keladi. Ushbu holat tadqiqotchining keyingi fikrlarida ham dalillanadi, ya'ni "...g'oyani aniqlash ilmiy bilimlarning butun tizimini aniqlash, uning shakllanish va rivojlanish jarayoni demakdir" [; 39-b.]. Mazkur yondashuv G.B.Kornetov tadqiqotlarida ham qo'llab-quvvatlanadi va ilmiy g'oyani shakllantirishning tarixiy shartlarini aniqlash nuqtayi nazaridan quyidagicha rivojlantiriladi "...ilmiy g'oyalar ta'lim va tarbiyada tarixiy tajribani inobatga olish

imkonini beradi hamda zamonaviy pedagogik jarayonning paydo bo'lishini tushuntiradi. U pedagogik muammolarga yo'naltirilgan koordinatalar va vositalarni taqdim etadi, ularning vujudga kelish sabablarini tushunish, yechimini topish va bartaraf etishga doir tajribalardan foydalanishga imkon beradi" [korn; 76-b.].

Ta'limni individuallashtirish va individual yondashuvning shakllanish jarayonlarini o'rganishga doir bir qator tarixiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Z.A.Kargina [], N.V.Gerdo [], M.V.Klarin [ilinsim], K.Ye.Sumnitelniy [], I.L.Chernyakova [], L.S.Slavina [], Ye.S.Rabunskiy [], I.E.Unt [], I.M.Cheredov [], I.A.Zimnyaya [], V.A.Slobodchikov, Ye.I.Isayev [], A.P.Tryapisina [], A.V.Xutorskoy [] va yana bir qator olimlar tomonidan individuallashtirishning tarixiy rivojlanish bosqichlari, turli mamlakatlarda shakllanish davrlari, ijtimoiy-madaniy ta'sir holatlari, xususiyatlari hamda modellari tadqiq qilingan.

Yuqorida ko'rsatilgan tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, xulosalari, ilgari surgan farazlari tahlili asosida individual ta'lim g'oyasi shakllanishini muammoli-xronologik usulda bayon qilamiz, chunki bu yondashuv rivojlanish jarayonini ketma-ket, tartiblashgan holda ko'rib chiqishga sharoit yaratadi.

Ta'limni individuallashtirish g'oyasi pedagogik bilimlarni shakllantirishning umumiy ilmiy mantig'ida mos ravishda rivojlanganligi I.L.Chernyakova tomonidan o'rganilgan [chern]. Uning izlanishlarini tahlillash va umumlashtirish asnosida individuallashtirish g'oyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini quyidagicha pog'onalash mumkin (1.1-rasm):


nazariyagacha bo'lgan bosqich – falsafiy bilimlar doirasida inson individualligini tushunishning shakllanishi bilan ifodalanadi;

klassik ratsionallik bosqichi – o'qitishning yetakchi tamoyillaridan biri sifatida o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olinishi bilan ifodalanadi;

noklassik ratsionallik bosqichi – ta'limni individuallashtirishning pedagogikaga oid bo'lgan turli nazariyalari va amaliyotining yaratilishi bilan ifodalanadi;

postneklassik ratsionallik bosqichi – ta'limni individuallashtirish muammosining zamonaviy antropologik va gumanitar bilimlar nuqtayi nazaridan

yechimlarini izlash bilan ifodalanadi.



1.1-rasm. Ta'limda individuallashtirish g'oyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari

Inson shaxsining individualligi haqidagi zamonaviy falsafiy va psixologik bilimlar asosida pedagogika fanida ta'limni individuallashtirishning pedagogik bilimlarning insonparvarlik yo'nalishini ochib beruvchi, shaxsga, bolaga, bolalikka e'tiborni markazlashtiruvchi antropologik konsepsiyasi (Sh.A.Amonashvili, B.M.Bim-Bad, G.B.Kornetov, A.I.Piskunov va boshqalar) ishlab chiqilmoqda. O'quv jarayonida shaxsni ta'lim faoliyati maqsadi va omili sifatida belgilovchi shaxs yo'naltirilgan o'qitish g'oyalari ham faol rivojlanib bormoqda. Pedagogika nazariyasi va amaliyotida individuallashtirish muammosi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida talabning shaxsiy va kasbiy o'z o'rmini aniqlashi, takomillashuvi (I.A.Zimnyaya, V.A.Slobodchikov, A.P.Tryapisina, A.V.Xutorskoy va boshqalar) bilan bog'liq holda o'rganishning rivojlanishi hamda "individual ta'lim trayektoriyasi", "individual ta'lim yo'nalishi", "individual ta'lim dasturi" kabi tushunchalarning paydo bo'lishi va amaliyotga kirishida o'z ifodasini topa boshladi. Yuqorida nazarda tutilgan izlanishlarda ta'lim jarayonini individuallashtirishda nafaqat o'quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olishga, balki ularning shaxsiy ta'lim faoliyaitining faol subyekti sifatida harakat qilishi uchun yetarli sharoitlar yaratilishi zarurligi tadqiq qilindi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ta'limni individuallashtirish tushunchasining

retrospektiv tahlili mazkur yondashuvning pedagogika fani va amaliyotida an'anaviy va uzoq tarixga borib taqalishini ko'rsatdi. Pedagogika nazariyasi va tarixiga doir o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili ta'limda individuallashtirish konsepsiyasining qadimgi, antik, o'rta va hozirgi davrdagi tadrijiy taraqqiyotini tushunish orqali uning rivojlanish trayektoriyasini aniqlashga imkon berdi. Shuningdek, zamonaviy sharoitlarda ta'limni individuallashtirishning rivojlanishiga doir tahlillarni umumlashtirish, konsepsiyasini takomillashtirish, uning tarkibiy qismlarini mavjud vazifalarga muvofiqlashtirish uchun yetarlicha ilmiy-nazariy asoslar paydo bo'lganligini ham qayd etish joiz bo'ladi. Shu bilan birgalikda ta'kidlashimiz mumkinki, rivojlangan xorijiy davlatlar pedagogikasidagi individuallashtirish sohasiga doir bilimlarning sezilarli darajada kengayib borayotganligi, yangi tajribalar bilan boyitilayotganligi, ta'limning fundamental tushunchasi sifatida qaralayotganligi hamda barqarorlikka ega ekanligi natijasida erishilgan muvaffaqiyatlarni milliy pedagogikamizga singdirish mamlakatimizda ta'lim maqsadlariga erishish va sifatini ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Андреева И.Н., Буторина Т.С., Васильева З.И. История образования и педагогической мысли за рубежом и в России: учебное пособие – М.: Академия, 2001. – 416 с.

Бим-Бад Б.М. Очерки по истории и теории педагогики. – М.: Изд-во УРАО, 2003. – 272 с.

Бурлакова Т.В. Индивидуализация профессиональной подготовки студентов в современном педагогическом вузе: дисс... док. пед. наук. – Ярославль, 2012. – 372 с.

Гердо Н.В. История и тенденции развития идей дифференциации и индивидуализации обучения // Вестник ЧГПУ им. И. Я. Яковлева. – 2012. – № 1 (73). Ч. 1. – С.30-33.